

MOLIYAVIY LEVERIJ – KOMPANIYALAR KAPITALI DAROMADLILIGINI OSHIRISH INSTRUMENTI SIFATIDA

Choriyev Isroil Xamzayevich

TDIU, “Moliyaviy tahlil” kafedrasida dotsenti, PhD

isroil77@rambler.ru

Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pirovard maqsadi maksimal foyda olishdan hamda o‘z moliyaviy holatini mustahkamlashdan iborat. Korxonalar rahbarlari va moliyaviy menejerlari tomonidan ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatlar bo‘yicha foydani shakllantirish va uni ko‘paytirishda samarali boshqaruv usullarining qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining natijaviyligiga bir qator omillar ta’sir etadi. Bunday omillar qatoriga sotilgan mahsulot(ish, xizmat)lar hajmi va bahosi, ishlab chiqarish va davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari, to‘lanadigan soliqlar va boshqa omillarni kiritish mumkin. Foydani shakllanishiga ta’sir etuvchi muhim omillar tarkibida olingan kredit va qarzlarni uchun to‘lanadigan foizlar hamda to‘lanadigan soliqlarning ham o‘rni katta. Mazkur omillarni samarali boshqarishda foydalaniladigan ko‘rsatkichlardan biri bu leverij ko‘rsatkichidir.

Leverij bu – tom ma’nodagi og‘ir narsalarni o‘zgartira oladigan ma’lum bir kuch (dastak) bo‘lib, uning yordamida nisbatan og‘ir yuklarni joyidan ko‘chirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotda, aniqrog‘i moliyaviy boshqaruvda leverij atamasi korxonalar foydasini oshirishga qaratilgan aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonini anglatadi. Shuningdek, leverij atamasining moliya sohasidagi mazmuni, uncha katta bo‘lmagan o‘zgarishi natijaviy ko‘rsatkichning sezilarli darajada o‘zgarishga olib keluvchi omil sifatida ifodalanadi. Leverij moliyaviy boshqaruvning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Korxonalarda foyda shakllanishini samarali boshqarish uchun boshqaruvning tashkiliy-uslubiy asoslarni takomillashtirish, foyda shakllanishi mexanizmining asoslarini bilish, tahlil va rejalashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanish talab etiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning muhim mexanizmlaridan biri moliyaviy leverij hisoblanadi.

Moliyaviy leverij korxonaning xususiy kapitali rentabelligini o‘zgarishiga ta’sir etadigan qarz mablag‘laridan foydalanishni ifodalaydi. Moliyaviy leverij korxonalar kapitali tarkibida qarz mablag‘laridan foydalanish hisobiga uning xususiy kapitaliga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha foyda olish imkonini beruvchi ob’ektiv omil sifatida qaraladi.

Moliyaviy leverij biznesga qarz mablag‘larini jalb etilganda paydo bo‘ladi. Bu biznesda biror loyihani amalga oirishdan yuqori foyda olish imkoniyati bo‘lsada (kapital egalari hamda moliyaviy menejerlar fikricha), uni

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

moliyalashtirishda yetarli darajada xususiy kapitalga ega bo‘lmagan holatda o‘rinli qaror hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivlarni moliyalashtirishda qarz mablag‘laridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Biroq moliyaviy leverijning yuqori darajada bo‘lishi, ya’ni qarz mablag‘larining ko‘payib ketishi ham moliyaviy tavakkalchilikning ortishiga olib keladi. Qarz mablag‘laridan unumli foydalanish hisobiga ushbu qarzlarning uchun to‘lanadigan foiz to‘lovlariga nisbatan yuqori foyda olishga erishish natijasida xususiy kapital rentabelligini ortishi moliyaviy leverijning samarasini ifodalaydi. Qarz mablag‘laridan bunday foydalanish G‘arb mamlakatlari iqtisodiyotida “kapital spekulyatsiyasining ustunligi” deb ataladi. Uning mohiyati qarz beruvchilarning imkon berganicha qarz olish va olingan qarzdagi samarali foydalangan holda qarzga olingan mablag‘ rentabelligi va to‘langan foiz stavkasining ijobiy farqi miqdorida xususiy kapital rentabelligining oshishini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, agar korxonaga qarzning foiz stavkasidan past miqdorda foyda olsa, albatta, bu korxonaga zarar keltiradi.

Bizningcha, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy resurslarni shakllantirishda, ya’ni moliyaviy leverij ko‘rsatkichining optimal darajasini belgilashda quyidagi holatlarni hisobga olish lozim:

1. Moliyalashtirish manbalarining tarkibida qarz kapitali ulushining yuqori bo‘lishi moliyaviy leverijning yuqori darajada bo‘lishini, mos ravishda, moliyaviy riskning ham yuqori bo‘lishini ifodalaydi;

2. Moliyaviy leverij korxonaga biznesining kreditorlarga qaramligini hamda uning darajasini belgilaydi;

3. Uzoq muddatli kredit va qarzlarning ko‘p miqdorda jalb etilishi moliyaviy leverijning o‘sishiga, mos ravishda moliyaviy riskning o‘sishiga olib keladi;

4. Moliyaviy riskning o‘sishi muntazam majburiy to‘lovlarning (foiz ko‘rinishida) o‘sishini ifodalab, to‘lov manbalarining (misol uchun, foyda) yetarli bo‘lmagan sharoitlarida aktivlarning bir qismini hisobdan chiqarilishini taqozo qiladi;

5. Moliyaviy leverij yuqori bo‘lgan biznesda foiz va soliqlar to‘langunga qadar foydaning undan foydalanishning cheklanishi (moliyaviy resurslarning egalari, ya’ni kreditorlar talablarining ustunligi) ta’sirida past darajadagi o‘zgarishi ham sof foydaning sezilarli darajada o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy leverij ko‘rsatkichi asosida moliyaviy resurslarni tarkibini samarali shakllantirishda biznesning foydaliligi hamda aktivlar rentabelligini ham hisobga olishsa, moliyaviy leverij samarasi ularning foydasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар:

1. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –

Toshkent:, «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.

2. Mamatqulov A.X. (2023). Paxtani qayta ishlash korxonalarida xarajatlarini boshqarish va hisobga olish usullari. *Moliya ilmiy jurnali*, 3-son.

3. Mamatqulov A.X.(2023). Paxtani qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha tannarxni hisoblash usullarini takomillashtirish https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32articleview1910

4. Raximov M. Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013.392 b.

5. Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o‘quv qo‘llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.

6. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 4 (2024), 754–759

7. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023.

8. Қличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от

<https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>

9. Klichev Bakhtiyar Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>

10. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.

11. U.K.Yakubov, G.S.Mahmudova. (2022). Biznes tahlil: Operatsion tahlil-1,2. (Darslik). –T.: “Nihol print”, 205 b.

12. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>

13. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.

14. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).

15. Абдуллаев, А. Б. (2019). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И АНАЛИЗА НАЛОГОВ. In *БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА* (pp. 10-17).

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

16. Kasimovich, Y. U. (2021). Developing A Model On The Basis Of A System Of Indicators Determining The Efficiency Of Foreign Trade Activities. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).

17. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). Извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>

18. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики*, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>

19. Tulaev, M. (2024). T BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA ULARNING MOHIYATI. *Nordic Press*, 2(0002).

20. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. *Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil.* <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>

21. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>

22. Klichev, B.P., Choriev, I. X. (2021). The Issues Of Business Activity Organization In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI)*. Volume 12, Issue 7, July 2021: 4587-4593.- URL:<https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4494>

23. Mamatqulov A.X. (2024). Qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobi va tahlilini takomillashtirish. *Jahon ilmiy tadqiqot jurnali*, 26(3), 132–140. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3256>